

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI VA XITOIY MUNOSABATLARI YOXUD XITOIYNING QARZ SIYOSATI

Og'abek Norqulov Sharofiddinovich

The University of World Economy and Diplomacy

Abstract. Ushbu maqolada muallif asosan Markaziy Osiyo mintaqasi va Xitoy o'rtasidagi aloqalar haqida bir muncha firk va mulohazalar yuritadi. Shuningdek muallif asosiy e'tiborini bu ikki mintaqaga o'rtasidagi olib borilayotgan iqtisodiy hamkorlik va Xitoyning qarziy siyosatiga qaratgan. Shuningdek tadqiqotchi asosiy e'tiborini bu mintaqadagi tabiiy boyliklari va jahon savdosida tranzit hudud ekanligi bilan ko'plab davlatlarni o'ziga jalb qilishiga qaratgan. Misol uchun, Markaziy Osiyo Xitoy va Yevropani, Rossiya va Xitoy, yana Rossiyaning Janubiy Osiyoga olib chiquvchi darvoza vazifasini o'taydi. Yana bu hududda sodir etilgan har qanday o'zgarishlar nafaqat Osiyo davlatlari, balki butun dunyo uchun qiziqarli va e'tiborga molik jarayondir. Bir necha manbalarga ko'ra bu mintaqaga qiziquvchi va ta'sir etuvchi davlatlar oz emas va ularning barchasini o'zining maqsad va manfaatlari mavjud. Misol qilib aytishim mumkin bo'lgan davlatlar qatoriga Rossiya, Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Eron, Turkiya va Hindiston kabi davlatlar kiradi va ularning bu mintaqaga nisbatdan qarashlari va manfaatlari boshqalarga nisbatdan juda yuqori hisoblanadi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo va Xitoy aloqalari va Xitoyning Qarziy siyosati haqida so'z boradi.

Key words: Markaziy Osiyo davlatlari, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, C5+Xitoy, "Bir Makon - Bir Yo'l" loyihasi.

Kirish. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari bu mintaqani umumiy bir nom – Markaziy Osiyo nomi bilan birlashtirishadi. Bu davlatlarning har birini alohida-alohida siyosiy mafkurasi va siyosiy ongi shakllangan va bu besh davlat ham o'zining turli xil tashqi siyosat yo'liga egadir. Mafkura bu - (arab. — fikrlar majmui) — muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Siyosiy ong esa kishilarning siyosiy bilimlari, tasavvurlari, maslaklari, e'tiqodlari, o'zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berish yig'indisidir. Markaziy Osiyoda turli xil elatlar, millatlar va xalqlar yashashadi va bu elatlar tarixan bir-biriga qardosh elat ekanligini ko'plab manbalar orqali bilib olsa bo'ladi. Bu mintaqada qardosh xalqlar istqomat qilishiga qaramasdan ularning alohida-alohida maqsad va manfaatlari mavjuddir. Bu mintaqada davlatlarining asosiy maqsadi va manfaatlari ham o'z davlatini ravnaqi uchun ham harakat qilishdir. Ular qaysi yo'ldan borishidan qat'i nazar o'zaro tenglik, do'stlikka asoslangan tashqi va ichki siyosat yuritishi kerak.

Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy

Markaziy Osiyo davlatlari so'nggi yillarda Xitoy bilan aloqasini yetarlicha rivojlantirib mustahkamlamoqda. Xitoy o'zining yirik iqtisod salohiyatiga ega ekanligi orqali nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari balki butun dunyo iqtisodiga

ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Aynan Xitoy bilan yaqin hamkorlik o'rnatayotgan Markaziy Osiyo davlatlari ham "Bir kamar - bir yo'l" loyihasini qo'llab-quvvatlab Xitoydan olingan katta qarzar evaziga o'zining infratuzilmasi va iqtisodiy samaradorligini oshirmoqda. Misol uchun, Qozog'iston Respublikasi Markaziy Osiyodagi eng katta hududga ega bo'lgan mamlakatdir ammo aholi soni hududiga nisbatdan juda ozdir. Mamlakat yuqori iqtisodiy salohiyatga ega ekanligi uchun dunyoda yuqori salmoqli davlat sifatida bugungi kunda tan olinadi. Buyerda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 2023-yilning birinchi choragida 5% ga o'sgan. Bu iqtisodiy o'sishning asosini energiya,neft,tabiiy gaz, konchilik, metallurgiya va avtomobil iqtisodiy tarmoqlari egallagan. Bizning asosiy e'tiborimiz markazida bo'ladigan tarmoq bu – neft-gaz hisoblanadi. Chunki mamlakat bugungi kunda asosiy neft ekspartiyorlaridan biridir. Aynan ushbu tarmoq Qozog'istonning zamonaviy tashqi siyosatiga asos bo'lib xizmat qiladi desam adashmagan bo'laman. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra Qozog'iston neft qazib olish bo'yicha dunyoda 18-o'rinni band qilgan.¹ Ya'ni qo'shnilarimiz kuniga 1,719,000 barrel qazib oladi va ushbu neftlarni KazMunayGaz orqali Xitoy, Rossiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya va 2023-yil fevral oyi oxiridan boshlab Germaniyaga yetkazib bermoqda. Qozog'iston o'z iqtisodiyoti yirik davlatlar safida bo'lsada o'ziga yarasha yetarlicha muammolari ham bor. Misol uchun bu mamlakat hukumatini qiynaydigan asosiy muammolardan biri bu – aholi etnik tarkibidir. Bugungi kunda Qozog'istonda 131 millat va elatlar istiqomat qilib kelmoqdalar. Qozoq millatiga tegishli aholi foizi 70,6 % ni tashkil etsa, ruslar esa 15,1% ni tashkil etmoqda va ushbu rus millatiga tegishli aholi bilan keng qamrovli etnik muammolar tez-tez sodir etilmoqda. Ushbu ruslar mamlakatning shimoliy-sharqiy qismida istiqomat qilishadi va Ular o'zlarini Rossiya aholisi deb biladi. Aynan ularning fikrlariga ko'ra ular istiqomat qilayotgan hududlar, Shimoliy Qozog'iston, Atirau, Petropavlovsk kabi hududlar o'zlari mustaqil bo'lishi kerak yoki Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kiritilishi kerak deb hisoblashadi. Aynan ushbu aholining keng qatlamining fikri Rossiya va Qozog'iston o'rtasiga sovuqchilik tushirib hatto Qozog'istonni Rossiyadan uzoqlashishiga olib kelishiga olib borayotgan sabablardan biridir. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan hali-hanuzgacha Rossiya Qozog'istonning asosiy iqtisodiy va strategik sherigidir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining qoq markazida joylashgan va 4 ta Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaradosh bo'lgan yagona, muhim geostrategik hududdir. Uning joylashuvi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun juda muhim, Aynan Z.Bjeziniskiy qarashlariga ko'ra Markaziy Osiyo birinchidan Yevroosiyo bolqonlari tarkibiga kiruvchi va asosiy muammoli hududlar hisoblanadigan mintaqa ekanligi haqida so'z yuritgan. Uning fikriga ko'ra ushbu mintaqani qalqoni Qozog'iston va bu mintaqaning joni,yuragi O'zbekistondir deb bejiz aytib ketmagan. Chunki O'zbekiston qolgan 4 ta davlat uchun juda muhim va ularga ta'sir o'tkaza oladigan yagona davlatdir. Undan Tashqari Bjeziniskiy shunday bir g'oyani ilgari surib ketgan, ya'ni postsovet davlatlari ichida eng asosiy ro'lni, aniqrog'i Rossiyani tiyib tura oladigan davlatlar

rolini faqat 3 ta mamlakat qila olishi mumkin ekanligi va bu davlatlar o'sha biz biladigan Ukraina, Ozarbayjon va O'zbekistondir deb o'zining "Buyuk Shaxmat Taxtasi" nomli kitobida tilga olib o'tgani bejiz emas. Shuning uchun Rossiyaga qarshi qaratilgan har bir siyosiy qarashlarga ushbu yuqoridagi 3 ta mamlakat jalb qilinishi va ularga kerak bo'lsa iqtisodiy o'sishga yaqindan yordam berib, ularga ko'plab sarmoyalar kiritishi kerakligini aytib o'tadi. Bejizga bugungi kunda Xitoy, AQSH, Hindiston va Yevropa Ittifoqi davlatlari O'zbekistonga alohida e'tibor qaratishmaydi. O'zbekiston ham o'zining iqtisodiy o'sish jihatdan Markaziy Osiyoda Qozog'istondan so'ng ikkinchi o'rinda joylashganligi sir emas. Bu iqtisodiy o'sishga yordam berayotgan asosiy tarmoqlar oltin sanoati, neft, tabiiy gaz, ko'mir hamda urandir. O'zbekiston o'zining tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish orqali o'z iqtisodiyotini ko'tarishga harakat qilayotgan davlatlar qatoriga kira oladi. Bugungi kunda O'zbekistonga tashqi tomondan to'g'ridan to'g'ri xavf- xatar yo'q bo'lsada o'zining yetarli ichki muammolariga ega ammo bu muammolar faqat O'zbekiston uchun emas balki butun Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'sir etadi. Bu haqida o'zbek siyosatchisi va diplomati S.Safoev ham o'zining "*Markaziy Osiyodagi Geosiyosat*" deb nomlangan kitobida shunday fikrlarni ilgari suradi. *Ya'ni "Markaziy Osiyo davlatlari qardosh millat va elatlardan tashkil topgani va bu davlartlarning etnik qatlamlari bir-birining hududida mavjudligi bu mintaqani birlashtiradi va buyerda sodir bo'ladigan barcha muammolar global muammolarga aylana oladi va yechim topishda ham ushbu mintaqada davlatlari bir yoqadan bosh chiqarishmasa bu muammolar muammoligicha qolib ketadi"* ² deb o'z dunyo qarashini bayon qilgan ekan.

Turkmaniston Respublikasi O'zbekiston va Qozog'istonga nisbatdan yuqori neft va tabiiy gazga ega (asosan tabiiy gaz) bo'lgan davlat hisoblanadi hamda Kaspiy Dengizi bo'yida joylashganligi jihatidan muhim geostrategik hudud rolini o'ynay oladi. Ushbu mintaqaga nisbatdan qiziqish juda baland bo'lishiga sabab u o'zining tabiiy gaz va neftlarini jahon bozoriga yetkaza oladi va jahon bozoriga taklif qila oladi. Aynan Turkmaniston "Bi-Pi" ma'lumotlariga ko'ra o'zining gaz zaxiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinni egallagan (2021-yil ma'lumotlariga ko'ra), OPEC e'lon qilgan reytingda esa 5-o'rinni egallagan. Turkmanistonda gaz zaxirasi 17,5 trillion kubni tashkil etadi. Turkmaniston o'zining milliy kompaniyasi TurkmanGaz orqali asosiy gazni Xitoy, Rossiya, Eron, O'zbekiston va Turkiyaga eksport qilsa, Neftni esa Eron, Xitoy, Afg'oniston, Pokiston va O'zbekistonga yetkazib beradi. Turkmaniston jahon hamjamiyatida asosiy e'tibor prezidentlik jarayonlariga ham qaratiladi desam adashmagan bo'laman ya'ni tashqi tomondan rasmiy prezident Serdar Berdimuhammedov hisoblansada lekin asosiy vakolatlar otasi Gurbanguli hokimiyatiga o'tib ketgandek tuyulmoqda. Shu jihatdan ham Turkmaniostondagi voqealar barcha davlatlarga juda qiziq deb o'ylayman. Undan tashqari bu mamlakat Xitoy bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi. Nafaqat Turkmaniston balki butun Markaziy Osiyoning asosiy iqtisodiy hamkori Si Szinpin boshchiligidagi Xitoy Xalq Respublikasidir.

Markaziy Osiyoda o'zining demokratik qarashlari bilan ajralib turadigan davlat bu – Qirg'iziston Respublikasidir. Ushbu mamlakat Markaziy Osiyodagi eng so'lim makonlardan biri hatto o'ziga *“Markaziy Osiyo Shvetsariyasi”* degan nomni ham olgan. Bu yerdagi siyosiy jarayonlar agressiv shaklda talqin qilinadi. Hatto bu mintaqada kichik davlat bo'lishiga qaramasdan 200 dan ortiq siyosiy partiyaning mavjudligi juda ajablantiradi (Ma'lumot o'rnida mamlakatda 2015-yil 199 ta siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan). Bu mamlakat tashqi savdosi asosan Xitoy, keyin esa Rossiyaga bog'langanligi bilan ajralib turadi. Xitoy bilan qo'shni ekanligi unga Xitoyning to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy ta'sirini o'tkazishga yordam beradi. Undan tashqari yuqorida aytilgan agressiv siyosat o'z tasdig'iga ega. Misol uchun 2005 va 2010-yillardagi *“lolalar”* va *“aprel”* inqiloblari voqealari butun dunyoni o'ziga jalb qilgan. Qirg'iziston Markaziy Osiyoga Xitoy uchun ko'prik vazifasini bajaradi. Ammo Qirg'izistonning Xitoy bilan tashqi savdoda asosiy hamkori bo'lishi ham sal xafiligini aniq. Chunki bugungi kunda Xitoy dunyo uchun kreditorlik vazifasini bajarayotgan ekan, demak undan qarz bo'lish real holat. Aynan Qirg'iziston Moliya Vazirligi ma'lumotlariga ko'ra hukumatining tashqi qarzi 5 milliard 631 millionni tashkil etmoqda. Bu qarzlarning yarimidan ko'pi Xitoydan olingan. Aynan mamlakat rahbari Sadir Japparov o'zining intervyularining birida *“Mamlakat tashqi qarzi keskin oshganligi sabab, davlatimiz o'z mustaqilligini yo'qotish xavifida turibdi”* deb tilga olgani bejiz emas.

Tojikiston Respublikasi – Markaziy Osiyoning janubi-sharqida joylashgan davlat. Bu mamlakat jahonda boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatdan qoloq va ko'proq notinch mamlakat sifatida esda qoladi. Buyerda ham hanuzgacha sovet tizimi oz bo'lsada saqlanib qolgan deya aytiladi, ammo mamlakat rahbari Imomali Rahmon hozirgi zamonda qilayotgan harakatlari orqali sovet tizimi hukmron bo'lgan mamlakat emasligini isbotlashga harakat qilmoqda. Bu mamlakat iqtisodiyoti sekin rivojlanmoqda va o'sish darajasi juda past. Undan tashqari mamlakatdagi muammolar juda ko'p. Misol uchun mamlakatda sog'liqni saqlash, ta'lim, qashshoqlik, ishsizlik va mamlakat infratuzilmasi juda achinarli xolatda. Tojikiston ham tashqi savdoda o'z qarzigacha ega va bu qarzning yarmidan yuqorisi Qirg'iziston kabi Xitoy mamlakatidan olingan. Undan tashqari mamlakat jahonda ko'proq 1992-1997-yillardagi fuqarolar urushi orqali eslanadi. Undan so'ng yuqori terroristik harakatlar saqlanib qolingani degan fikr ham mavjud. Bunday fikrning shakllanishiga sabab Afg'oniston bilan chegaradosh ekanligi va bu chegara qismida ko'plab terrorchi guruhlar joylashib olinganligi bilan ham izohlanadi. Xullas Markaziy Osiyo mamlakatlarida o'ziga xos va o'ziga yetarli bo'lgan ichki va tashqi muammolari mavjud. Bu yerdagi barcha mamlakatning birdan bir maqsadi tashqi siyosatda Rossiya, Xitoy, Eron va AQSH kabi davlatlarning ta'siriga tushib qolmaslik va o'zining suverentitligini saqlagan holda tashqi aloqalar o'rnatish hamda do'stona diplomatiyani ilgari surishdir.

Xitoyning qarz siyosati

Bir kamar - bir yo'l loyihasi aynan Xitoyning eng yirik qarz siyosati deyish bejiz emas. Chunki Xitoy ushbu katta iqtisodiy loyihada 900 ta loyihani amalga oshirish uchun 890 milliard dollar sarflashini ma'lum qilgan.³ Va bu iqtisodiy va siyosiy loyiha orqali juda ko'p mintaqa iqtisodiga kirib borishni maqsad qilgan deyilsa xato emas, chunki bu Xitoyning ta'sirini oshiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning Shanxay Hamkorlik tashkilotiga nisbatdan qarashlari ham buyerdagi Xitoyga yelkadosh bo'lishga imkon beradi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti esa Markaziy Osiyo davlatlarining Xitoy bilan yaqinlashish va iqtisod bo'yicha katta loyihalarni amalga oshirishga imkon beruvchi yirik tashkilotdir. Aynan ShHTning yuragi sifatida Markaziy Osiyo davlatlari qaraladi. Chunki bugungi kunda Markaziy Osiyoga nisbatdan jahon integratsiyasi avvalgiga nisbatdan juda baland. Buning asosiy sababi Markaziy Osiyo o'zini dunyoga turli xil iqtisodiy qarashlari bilan nazariga tushmoqda. Shuningdek buyerdagi iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotga qaratilayotgan e'tibor bu mintaqada yildan yilga o'smoqda. Undan tashqari Markaziy Osiyo mamlakatlari aholi soning oshishi ya'ni demografik o'zgarishlar ham juda yuqori va bu yerda demografik o'zgarishlar orqali iste'mol bozori shakllanmoqda. Bu iste'mol bozori o'z-o'zidan bu besh mamlakatni tezroq bozor iqtisodiyotiga o'tishga undaydi. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo UNDESA hisob-kitoblariga ko'ra, mintaqa aholisi 2025 yilga borib 71,4 millionga (77,590,279 million kishi istiqomat qilmoqda, 30-may 2023-yil holatiga ko'ra), 2050-yilga borib 82 millionga etadi⁴. 2050-yilda shaharlarda yashovchi aholi ulushi mos ravishda o'sib, 55,2 foizga etadi aynan ushbu aholi sonining oshishi o'z o'zidan iste'mol bozorini shakllantiradi. Bu aholi o'sishi aynan dunyo hamjamiyatlarini bu mintaqaga qiziqishini ortirishga asosiy sabablardan biri deb o'ylasam, ikkinchi asosiy sabab bu mintaqada joylashgan tabiiy resurslardir. Chunki bu yerda juda katta neft va tabiiy gaz konlari mavjud va bu tabiiy resurslar ko'plab davlatlarga juda zarur. Misol uchun, Xitoyning neft va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojini qondirish juda qiyin. Va Xitoy ham bu kabi mahsulotlarni Arab va Fors ko'rfazi davlatlaridan sotib olishning o'rniga o'ziga yaqin, shuningdek kamxarajatli bo'lgan qo'shnilaridan olishni yaxshiroqdir deb o'ylaydi. Ammo Erondan ham Arab davlatlaridan ham neft va gaz mahsulotlarini sotib oladi. Chunki yuqorida aytib o'tganimdek Xitoyning bu mahsulotlarga nisbatdan ehtiyojini qondirish juda murakkab ishdir. Endi ushbu mahsulotlar kerak ekan demak Xitoy Markaziy Osiyo bilan yaqinlashishi zarur deb o'ylaydi va aslida ham shunday bo'lmoqda. Biz biladigan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti yoki yaqinda tashkil etilgan C5+Xitoy sammiti ham ushbu ikki yirik mintaqa hududlar o'rtasida hamkorligi mustahkamlanayotganligidan dalolatdir. Xitoy Shanxay Hamkorlik Tashkilotida muhim rol o'ynaydigan va global kuchga ega bo'lishga harakat qilayotgan mamlakatdir. Ushbu Tashkilot orqali u ko'plab iqtisodiy, turizm, ta'lim, ma'daniyat va hakoza kabi sohalar yuzasidan yaqinlashishga harakat qilmoqda. Ammo asosiy e'tibor iqtisodiy aloqalarga bog'lanib qolgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ShHT hech qanaqa harbiy tuzilma emas, u faqat tinchlik orqali mamlakatlarning rivojlanishi va bir-biri bilan hamkorligini

o'rnatishni xohlaydi. Shuningdek ushbu tashkilot orqali Xitoy Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy o'rnini mustahkamlab kelmoqda va bugungi kunda iqtisodiy harakat uning asosiy maqsadi ekanligini anglab yetdik. Yuqorida aytganimdek Xitoy harbiy aloqalarni to'g'ridan to'g'ri amalga oshira olmaydi. Demak, Nega Xitoy ShHT doirasida faqat iqtisodiy hamkorlikni ma'qul ko'radi? Chunki harbiy shartnomaslarni bajara olmaslikka birinchi sabab ShHT ustavida bunday band mavjud emasligi bo'lsa ikkinchi asosiy ro'l o'ynaydigan fakt bu Rossiyaning ushbu hamkorlik tuzilmasida mavjudligidir. Chunki Rossiya hech qachon Markaziy Osiyoni Xitoyga qo'sh-qo'llab berib qo'ya olmaydi. Bugungi kunda ushbu ikki mamlakat o'rtasida bu mintaqa uchun juda katta yashirin raqobat va kurash ketmoqda. Ammo Rossiya Xitoyga to'g'ridan to'g'ri harakat qila olmaydi, chunki uning asosiy fikr e'tibori Ukrainaga qaratilgan va shu bilan band bo'lib qolganligidir. Ammo Xitoy doimo Markaziy Osiyoga qiziqib kelgan mamlakatlardan biri bo'lib qoladi. Unga xoh Rossiya qarshilik qilsin, xoh AQSH u doimo ushbu mintaqa uchun kurashishda davom etadi. Xuddiki Markaziy Osiyo mamlakatlarini qo'shtirnoq ichidagi tashqi kuchlardan himoyalash uning vazifasi ekanligini aytgandek. Undan tashqari U doimo bu mintaqa iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazishni xohlagan va bugungi kunda buni udallamoqda. Ayni vaqtda Xitoy investorlik rolini juda ajoyib qilib o'ynamoqda. Bunga Markaziy Osiyo davlatlari qanchalik ishonishdi va Xitoyning yolg'on siyosati ya'ni "*Bir Makon – Bir Yo'l*" loyihasini qo'llab quvvatlashdi ochig'i hayratlanarli holatdir. To'g'ri bu loyiha balki haqiqatdan davlatlarni iqtisodiyotini rivojlantirishi mumkin lekin ushbu mintaqadagi davlatlar masofa saqlagan holdda ushbu qarz siyosatini qo'llab – quvvatlash kerak ekanligini xohlardim. Chunki Xitoyning ushbu siyosati tashqi tomondan xuddiki davlatlarni rivojlantirishi kerakdek tuyuladi ammo sirdan qaraganda bu siyosat har bir davlat iqtisodiyotini o'ziga qaram qilib oladi. Misol qilib aytishim mumkin bo'lgan davlatlardan biri bu qo'shnimiz Qirg'iziston Respublikasidir. Uning Xitoydan qarzi butun tashqi qarzining yarimidan ko'pini tashkil etadi. Xitoyning yana bir g'aroyib siyosati bor, bu qarz bo'lgan davlatdan to'g'ridan to'g'ri qarzni talab qilib olmaydi ammo uning qandaydir muhim obyektini so'raydi yoki ushbu davlatdan yer sotib olishini xohlab murojaat qiladi. Qirg'iziston misoliga to'xtaladigan bo'lsak, mamlakatda temir rudasi boy bo'lgan dunyodagi ikkinchi temir ruda koni Jetim-Too koni mavjud. Bu konning qiymati 50 milliard dollar deb baholangan. Bu kon mojaroli xususiyatga ega bo'lgan muhim obyektidir. Ya'ni bu kondan foydalanish uchun Sadir Japarov 2020-yil Xitoyning Eksimbankidan 1,8 milliard dollar qarz oldi va bu konni qaytadan qurish va ishga tushirish niyati borligini aytdi. Ushbu kon katta muammolarga olib kelishi haqida juda ko'plab qarshiliklar bildirilishiga qaramasdan ochilgan. (Ma'lumot o'rnida bu konning temir rudasi 500 million kub metr deb baholangan). Undan tashqari Qirg'iziston hududi oltinga boy hudud hisoblanadi va ushbu oltinlarni qazib olish uchun mamlakat doimo Xitoy kompaniyalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Reuters ning 2011-yil 21-sentyabrdagi ma'lumotlariga ko'ra Qirg'iziston o'zining Jalolobod viloyatidagi Ishtamberdi

oltin konidan foydalanish uchun Xitoyning Full Gold Mining shirkati sho'basini tashkil etishdi deb bayonot bergan. Ma'lumotlarga qaraganda ushbu oltin konidan 2012-yilgacha har yili 300 ming tonna oltin rudasini qayta ishlashni rejalashtirganini aytilgan. Qirg'izistonning asosiy iqtisodiyotini ko'tarib berayotgan oltin koni bu – Qumtor hisoblanadi. Bu kondan foydalanish 1997-yildan boshlangan. Ushbu kon 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra o'sha yili 17,3 million tonna oltin qazib olgan va bu 2021-yilga nisbatdan 3 million tonna ko'proq deganidir. Ushbu kon Kanadaning Centerra Oltin kompaniyasi tomonidan foydalaniladi va ushbu kompaniya tomonidan sarmoya kiritilgan edi. Ammo 2009-yil Xitoy ushbu oltin konning 65 foiz aksiyasini sotib olib unga egalik qilmoqda. Undan tashqari Xitoy mamlakatda joylashgan Jeroy oltin koni va Terek-Sai mis konidan ham foydalanadi. Xitoy faqat Qirg'iziston bilan chegaralanib qolmagan. U yana bir qo'shnimizni qarz botqog'iga botqizmoqda desam adashmagan bo'laman. Xitoy ayni vaqtda Tojikistonning eng yirik oltin konlaridan biri Zarafshon oltin konidan foydalanadi. Undan tashqari Jilou oltin koni ham, shuningdek Sug'd viloyatida joylashgan qo'rg'oshin-rux koni ham Xitoy sarmoyalari orqali yuritiladi. Umuman olganda Xitoy Tojikistonga kiritgan asosiy kon sanoati sarmoyalari jahon bozorida talab yuqori bo'lgan mamlakatdagi oltin, mis va boshqa turdagi metallurgiyalarga qaratilgan. Markaziy Osiyoning yirik tabiiy gaz yetkazuvchi mamlakati Turkmaniston ham Xitoy bilan birgalikda ishlaydi. Ya'ni mamlakatda joylashgan eng yirik gaz koni Galkinishni boshqaradi (hatto o'zlashtirishda ham ishtirok etgan). Xitoyning milliy neft koorparatsiyasi (CNPC) ushbu konning 60 foizi ulushiga ega. Bugungi kunda Xitoy Turkmanistonning boshqa hududlarida neft va gaz qidirish ishlarini olib borayotganligi haqida ham xabarlar mavjud, ammo fakt emas. Bejiz men yuqorida Xitoy Markaziy Osiyo iqtisodiga aralashib ulgurgan deb aytmagan edim. Chunki bizning mamlakatda ham uning ma'lum bir hissasi bor, hatto bizning asosiy tashqi qarzlrimiz ham ushbu mamlakatdan olingan. Masalan, eng yirik oltin koni Muruntov va yirik hisoblanadigan mis koni Qalmoqqirda ham Xitoyning ulushi mavjuddir. Xitoy qo'shnimiz Qozog'istonning ham asosiy tog'-konlariga egalik qiladi. Misol uchun, dunyodagi eng yirik mis konlaridan biri Oqto'g'ay mis konining 50% i xitoyning mashhur kompaniyasi "Zijin Mining Group"ga tegishli, yana Qizil oltin konining ham 50%i Xitoyga tegishli va ular ushbu kondan yiliga 300 000 ming untsiya oltin qazib olishni rejalashtirgan. Qozog'iston o'zining Bo'zimchak mis-oltin konini 60%ini topshirib qo'yganidan Xitoyning Qozog'iston iqtisodiyoti uchun qanchalik muhim ekanligini anglab yetasiz degan umiddaman. Bularga yetmagandek qo'shnilarimiz Qizilo'rda viloyatida joylashgan Shalkiya rux-qo'rg'oshin-kumush konining teng yarim ulushiga Xitoy egalik qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xitoy o'zining yolg'on "yordam" siyosati orqali har bir davlatning milliy iqtisodiyotini egallashga harakat qiladi va muhim obyektlaridan teng yoki o'z ulushiga ega bo'lishni xohlaydi. Bir pokistonlik siyosatchi o'zining maqolasida shunday bir fikrni ilgari surgan edi. "Xitoyning hech qanaqa do'sti yo'q, Xitoy hech kimga do'st bo'lmaydi, Uning birdan bir maqsadi mamlakatni qarz botqog'iga ga'rq

qilishdir". Shunday ekan Markaziy Osiyo ham Pokiston qilgan xatolarni qilmaslik uchun ham Xitoy va boshqa mintaqaviy kuchga ega bo'lgan davlatlar bilan masofa saqlagan holda siyosat yuritish kerak deb o'ylayman. Bejizga har bir davlatlar o'rtasida faqat manfaatlar yotadi deb aytilmas ekan. Demak, O'zbekiston manfaati bor bo'lgan joyda, bizning siyosiy tuzilmamiz ishlaydi va o'z suverentitimizni himoya qiladi deb umid qilaman.

O'zbekiston - Xitoy munosabatlari

O'zbekiston + Xitoy munosabatlariga keladigan bo'lsak, Bu ikki mamlakat bir-biriga kerakli va zarurdir. Birinchidan Xitoyga nima uchun O'zbekiston kerak degan savolga yuzlanadigan bo'lsak. O'zbekiston avval aytib o'tganimdek Markaziy Osiyoning yuragi va bu pozitsiyasi uni to'rtta Markaziy Osiyo davlatlari bilan bog'lab turadi. O'zbekiston Xitoyga birinchi navbatda o'sha neft uchun zarur bo'lgan mamlakat. 2019-yil O'zbekneftgaz kompaniyasi ma'lum qilganidek, Davlatimiz o'sha yili Xitoyga 8 mlrd kub neftni yetkazib bergan. Undan tashqari O'zbekiston + Xitoy o'rtasida shartnomalarning bir nechtasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining Xitoyga eksport qilish haqida keltirilganligi ham savolga javob bo'la oladi. Orada COVID-19 boshlanganligiga qaramasdan ikki o'rtadagi iqtisodiy aloqalar to'xtab qolgani yo'qdir. Misol uchun, 2021-yilda ikki tomonlama savdo hajmi salkam 7,4 milliard dollarga, shu yilning yanvar-iyun oylarida esa 4,5 milliard dollarga yetdi⁵. Shuningdek, Xitoy O'zbekiston uchun eng yirik eksport bozori bo'lib qolmoqda. Ma'lumot o'rnida aytib o'tadigan bo'lsam, 2022-yil mobaynida O'zbekiston Xitoyga mineral yoqilg'i (849,5 mln dollar), xizmat ko'rsatish (703 mln dollar), sanoat mahsulotlari (629,8 mln dollar) kimyo sanoati mahsulotlari (133,8 mln dollar), oziq-ovqat mahsulotlari (108,8 mln dollar) eksport qilgan. Ko'rib turganimizdek oziq-ovqat eksporti Xitoy bilan munosabatlarda yuqori o'rinda turadi. Endi esa bir so'z bilan O'zbekistonga Xitoy nima uchun kerak ekanligini ushbu faktlar asosida anglab, tushunib olasiz. Xitoydan asosan mashinalar va asbob-uskunalar (3,6 mlrd dollar), sanoat mahsulotlari (1,3 mlrd dollar), kimyo sanoati mahsulotlari (821,9 mln dollar), turli tayyor mahsulotlar (470,8 mln dollar) bo'lsa, xizmat ko'rsatish (90,2 mln dollar) xarid qilingan. Endi O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasiga to'xtaladigan bo'lsak, 2023-yilning dastlabki to'rt oyida 19,6 mlrd ni tashkil etdi. Bunda Xitoyning ulushi 17 foizni tashkil etdi. Birgina aprel oyining o'zida O'zbekiston Xitoyga 650 mln dollarlik oltin va 90 mln dollarlik gaz eksport qilgan. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Xitoyni o'zi uchun haqiqiy iqtisodiy hamkor sifatida ko'radi. To'g'ri biz hali ham qaysidir ma'noda Rossiya bilan import-eksport siyosatini olib boramiz ammo so'nggi yillarda bu Rossiya o'rnini Xitoy egallashi yaqqol ko'zga ko'rinib turibdi. Ammo biz shunda ham Rossiyaga ko'plab mahsulotlarni eksport qilishda davom etamiz deb o'ylayman.

Xulosa. Umumiy xulosaga yuzlanadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo o'zining suverentetligini hech qachon berib qo'ymaslik kerak, hattoki Xitoyning qarzi siyosati va iqtisodni qaram qilish harakatlariga yetarlicha javob berishimiz kerak. Chunki Xitoyning qarzi siyosati faqat bizga nisbatdan qo'llanilmaydi, bugungi

kundan Xitoydan katta qarzlari bo'lgan o'nlab Afrika davlatlari ham bor. Misol uchun, Mozambik, Chad, Burundi va Zambiyaning qarzlari yuqori yoki shunday bo'lish ehtimoli bor. Yana shuni ayta olamizmi Xitoy qarzni hech qachon quruq qoldirmaydi va undan avval aytib o'tkanimizdek qandaydir muhim geostrategik obyektlarini yo sotib oladi, yo ijaraga oladi hatto ba'zi joylarni qarz evaziga o'zi ham qurib beradi. Misol uchun, 2017 yilda Shri-Lanka Xitoyga Xitoy dengiz floti uchun strategik baza sifatida foydalanish uchun Hambantoto portini 99 yillik ijara shartnomasini imzoladi.⁸ Yana bunga asos bo'la oladigan davlat bu Jibutidir. Ushbu mamlakat Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, Xitoydan 1,4 milliard dollardan ortiq qarzga ega - bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 45 foiziga teng.⁹ Undan tashqari mamlakat qarzdin qutulish uchun oltin yoki neft kabi qazilma boyliklari yo'qligi sabab, Shri-Lanka singari port, telekommunikatsiya, temiryo'l va erkin iqtisodiy zona kabi muhim obyektlari ustidan nazoratni yo'qotishi mumkin. Bu kabi davlatlardan xulosa chiqargan holda Markaziy Osiyoning asosiy uchta va qolgan ikkita davlati ham masofa saqlashi kerak. Bunda Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Xitoydan yetarli miqdorda qarz. 2022-yil dekabr oyidagi ma'lumotlarga ko'ra Qozog'istonning tashqi qarzi 160,5 mlrd dollarni tashkil etdi va bu tashqi qarzlarning yuqori salmog'i Xitoyga tegishli bo'lsa qolgan ikki mamlakat esa AQSHdagi Global taraqqiyot markazi tadqiqotlariga ko'ra Xitoyning "qarz tuzog'iga" tushib qolgan.¹⁰ O'zbekiston va Turkmaniston hukumati bu yuqoridagi ikki mamlakatdan o'rnak olgan holda o'zining tashqi savdo siyosatini olib borishiga ishonib qolamiz.

References

1. OPEC <https://www.opec.org>
2. "Markaziy Osiyodagi Geosiyosat" / Sodiq Safoev/ 2003-yil
3. Bir Makon–Bir yo'l loyihasining O'zbekiston iqtisodiy-siyosiy hayotidagi tarixiy ahamiyati/ Zavqibek Mahmudov/Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3 (6), 5-9, 2023
4. <https://www.unescap.org/sites/default/files/Urbanization-in-CA-ENG.pdf> / 17-bet
5. Olimqulov Yashnar Maxmadamin o'g'li, & Narziyev Furqat Fayzullo o'g'li. (2023). O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan iqtisodiy aloqasi. Journal of Universal Science Research, 1(4), 326–331.
6. "Buyuk Shaxmat Taxtasi " / Zabignev Bjezinskiy / 1996-yil
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi <https://stat.uz>
8. <https://foreignpolicy.com/2019/04/25/chinas-dept-diplomacy>
9. Xalqaro Valyuta jamg'armasi / <https://www.imf.org>
10. AQSH ning global taraqqiy markazi / <https://www.cgdev.org>